

## XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi

va audit kafedrası assistenti

ORCID: 0009-0000-6662-5386

E-mail: [onarzullayeva344@gmail.com](mailto:onarzullayeva344@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. GRI, ESG, IFRS S1/S2 va TCFD kabi ilg'or yondashuvlarning xizmat sohasi uchun amaliy afzalliklari ochib berilgan. Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida moliyaviy hisobot orqali ekologik shaffoflik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Yashil iqtisodiyot, xizmat sohasi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, IFRS S1/S2, GRI, ESG, TCFD, barqarorlik hisobotlari, O'zbekiston tajribasi.

### Аннотация

В статье анализируются возможности использования международных стандартов финансовой отчетности на предприятиях сферы услуг в процессе перехода к зеленой экономике. Раскрываются практические преимущества таких передовых подходов, как GRI, ESG, IFRS S1/S2 и TCFD для сферы услуг. На основе зарубежного опыта разрабатываются предложения по обеспечению экологической прозрачности и устойчивого развития посредством финансовой отчетности в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** Зеленая экономика, сфера услуг, финансовая отчетность, международные стандарты, IFRS S1/S2, GRI, ESG, TCFD, отчеты об устойчивом развитии, опыт Узбекистана.

### Abstract

This article analyzes the possibilities of using international standards of financial reporting in service enterprises in the process of transition to a green economy. The practical advantages of such advanced approaches as GRI, ESG, IFRS S1/S2 and TCFD for the service sector are revealed. Based on foreign experience, proposals are developed to ensure environmental transparency and sustainable development through financial reporting in the conditions of Uzbekistan.

**Keywords:** Green economy, service sector, financial reporting, international standards, IFRS S1/S2, GRI, ESG, TCFD, sustainability reports, Uzbek experience.

### KIRISH

Xalqaro tajribalarda buxgalteriya hisobi tizimi moliyaviy hisob (financial accounting) va boshqaruv hisobi (management accounting) kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda buxgalteriya hisobi fani ham moliyaviy hisob va boshqaruv hisobiga bo'lib o'rganilmoqda. Moliyaviy hisob bu asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot ko'rinishida axborotlarni taqdim qilish bo'lsa, boshqaruv hisobi esa ichki axborot foydalanuvchilar, ya'ni menejerlarga qarorlar qabul qilishlari uchun foydali axborotlarni yetkazib berish quyitizimiga aytiladi.

Bugungi kunda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot tamoyillari global kun tartibiga aylangan. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasi – transport, mehmonxona, savdo, bank, sog'liqni saqlash kabi tarmoqlar iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik yuklamalarni ham oshirayotgan bir paytda, ularning yashil iqtisodiyotga integratsiyalashuvi dolzarb hisoblanadi. Bunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS, GRI, TCFD, ESG) asoslanish orqali ekologik javobgarlikni moliyaviy ochiqlik bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining umumiy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari va imkoniyatlari, xizmat ko'rsatish korxonalarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish imkoniyatlari haqida ko'plab olimlar o'zlarining ishlarida bayon etganlar. Jumladan, V.V.Semenixin O.O.Xolmatov o'zining tadqiqotlarida O'zbekistonda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishning zarurati va ahamiyati masalalariga e'tibor qaratgan [1].

Mahalliy olimlarimizdan I.B.Djurayeva ham izlanishlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelish zarurati, umumiy hisobotlarining tuzilishi va O'zbekistonning MHXSga o'tishida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlari to'g'risidagi fikrlarni ilgari suradi [2]. Izlanishlarda AQSH va Angliya «yashil» iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun qonuniy me'yoriy hujjatlari, ishlab chiqarish tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va yashil iqtisodiyot samarasini oshirishga qaratilgan ilmiy loyihalarga alohida e'tibor qaratilishi haqida aytadilar. Bunda esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish jihatlari to'g'risida aytadilar.

### **METODOLOGIYASI**

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil” iqtisodiyotga o'tish tamoyillari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ta'sir doiralari va amalga oshirish dastaklari qiyosiy tahlil etilgan. Tadqiqot metodologiyasi obyektivlik, izchillik, tizimlilik, tahliliy fikrlash va dalillarga asoslangan yondashuv tamoyillariga tayangan holda olib boriladi. Shu asosda tadqiqot natijalari amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan foydali tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Xizmat ko'rsatish sohasi uchun yashil iqtisodiyotga o'tish faqat ekologik foyda emas, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish vositasidir. Bu jarayonda moliyaviy

hisobotning xalqaro standartlari korxonalariga ekologik javobgarlikni raqamlar orqali ifodalash, investor va iste'molchi ishonchini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bois, xizmat ko'rsatish korxonalarida GRI, ESG, TCFD va IFRS Sustainability kabi standartlarga asoslangan moliyaviy hisobotlarni joriy etish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanishi zarur.

### 1-jadval

#### Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari imkoniyatlari<sup>1</sup>

Standart	Imkoniyat	Xizmat sohasi uchun foydasi
IFRS (Sustainability S1/S2)	Ekologik aktiv va majburiyatlarni moliyaviy baholash	Yashil infratuzilmaga investitsiyalarni hisobga olish
GRI (Global Reporting Initiative)	Ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni hisobotda ochiqlash	Mijozlar va investorlar uchun ekologik shaffoflik
ESG (Environmental, Social, Governance)	Barqaror rivojlanish uchun reyting bahosi	Xalqaro kreditlar va investitsiyalarni jalb qilish
TCFD (Task Force on Climate-related Disclosures)	Iqlim xavflarining moliyaviy ta'sirini ko'rsatish	Turizm, transport va sug'urta sohalarida risklarni boshqarish

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari – xususan, GRI (Global Reporting Initiative), IFRS (International Financial Reporting Standards), ESG (Environmental, Social, Governance) va TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures) xizmat ko'rsatish korxonalariga ekologik, ijtimoiy va boshqaruv sohalaridagi ma'lumotlarni aniqlik bilan ifodalash imkonini beradi. Aynan shu vositalar orqali korxonalarining barqaror rivojlanish darajasi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashtiriladi.

Masalan, GRI standartlari xizmat ko'rsatish tarmoqlarida energiya sarfi, suv iste'moli, chiqindilar miqdori, ijtimoiy javobgarlik darajasi kabi indikatorlarni hisobot shaklida aks ettirishni taklif qiladi. Bu esa korxonaga faoliyatining ochiqligini oshirib, uning ekologik javobgarligini baholashda asos bo'lib xizmat qiladi. ESG ko'rsatkichlari orqali esa investorlar va kredit beruvchilar xizmat ko'rsatish korxonalarining ekologik va ijtimoiy risklarga munosabatini baholash imkoniga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, IFRS Sustainability Reporting Standards (S1 va S2) xizmat korxonalariga yashil aktiv va majburiyatlarni aniq moliyaviy qiymatda aks ettirish, iqlimga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga qarshi moliyaviy choralarni hisobotda keltirish imkonini beradi. Bu orqali turizm, sog'liqni saqlash, transport kabi sohalar o'z moliyaviy hisobotlari orqali barqarorlik holatini aniq ifodalab, xalqaro investorlar uchun ishonchli ma'lumot taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida ushbu standartlardan foydalanish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Avvalo, davlat mulkidagi yirik xizmat ko'rsatish korxonalarida barqarorlik hisobotlarini ishlab chiqish tajribasi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilishi mumkin. Bu amaliyot xususiy sektor uchun ham ilg'or namunaga aylanadi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Bundan tashqari, moliyaviy hisobotga yashil indikatorlarni kiritish orqali banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar korxonalarini baholashda ESG reytinglardan foydalanishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, xizmat ko‘rsatish sohasiga nisbatan ekologik va ijtimoiy mezonlar asosidagi investitsion yondashuvni shakllantiradi.

## 2-jadval

### Moliyaviy hisobot standartlarining xizmat ko‘rsatish korxonalarida qo‘llanish imkoniyatlari<sup>1</sup>

Xalqaro standart	Asosiy yo‘nalishi	Xizmat ko‘rsatish sohasi uchun imkoniyatlar	O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyati
GRI (Global Reporting Initiative)	Barqarorlik (ekologik, ijtimoiy, boshqaruv) bo‘yicha hisobotlar	Turizm, sog‘liqni saqlash, mehmonxona sohalarida ekologik chiqindilar, energiya sarfi, suv iste‘molini hisobotda aks ettirish	Davlat xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda tajriba loyihalari orqali joriy etish mumkin
IFRS S1 / S2 (Sustainability Disclosure)	Iqlim xavflari va yashil aktivlarning moliyaviy hisobotda aks etishi	Yashil infratuzilma investitsiyalarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, barqarorlik strategiyalarini hisobga olish	Soliq va moliya organlari bilan muvofiqlashtirilgan holda pilot hisoblash tizimlarini yaratish zarur
ESG (Environmental, Social, Governance)	Ekologik va ijtimoiy risklarni tahlil qilish, baholash tizimi	Xizmat ko‘rsatish korxonalarining ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tavsiflarini investorlar oldida namoyish etish	Mahalliy banklar kredit baholash mezonlariga ESG elementlarini qo‘shishi mumkin
TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures)	Iqlim xavflarining moliyaviy ta‘sirini ochiqlash	Transport, turizm va sug‘urta sohalarida iqlim bilan bog‘liq moliyaviy yo‘qotishlar xavfini ko‘rsatish	Barqarorlik strategiyasi qabul qilingan yirik xizmat tarmoqlarida bosqichma-bosqich joriy etish mumkin

Shunday qilib, xizmat ko‘rsatish korxonalarida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asoslanish, nafaqat korxonalar faoliyatining ekologik samaradorligini oshiradi, balki uning raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi. Bu yo‘nalishdagi kompleks yondashuvlar orqali mamlakatda barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi xizmat sektori shakllanadi.

Quyidagi jadvalda xizmat ko‘rsatish korxonalarida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan (GRI, IFRS S1/S2, ESG, TCFD) foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Sharhga ko‘ra, GRI standarti yordamida xizmat sohasi korxonalarini (masalan, mehmonxonalar, kasalxonalar, transport xizmatlari) o‘z faoliyatidagi ekologik ko‘rsatkichlar — chiqindilar, energiya va suv sarfi kabi ma‘lumotlarni shaffof tarzda hisobotlarda aks ettirishi mumkin. IFRS S1/S2 esa yashil aktivlar va iqlim xavflarining moliyaviy hisobotda aniq ifodalanishiga imkon yaratadi, bu korxonalarining barqaror rivojlanish strategiyalarini moliyaviy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. ESG yondashuvi xizmat korxonalarini uchun ijtimoiy va ekologik xavflarni tahlil qilib, xalqaro investorlar va moliya institutlari bilan ishlashda ishonchli reyting tizimini

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

yaratadi. TCFD modeli esa iqlim bilan bogʻliq moliyaviy yoʻqotishlar xavfini aniqlashga yordam beradi, ayniqsa turizm, transport, sugʻurta kabi sohalarda dolzarb hisoblanadi.

Oʻzbekiston sharoitida bu standartlarning amaliy qoʻllanilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, avvalo yirik davlat xizmat koʻrsatuvchi korxonalarda sinov tariqasida joriy etilishi maqsadga muvofiq.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xizmat koʻrsatish sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bugungi kunda nafaqat ekologik barqarorlik, balki iqtisodiy raqobatbardoshlik va moliyaviy shaffoflikni taʼminlashda ham muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish xizmat korxonalarining faoliyatini nafaqat moliyaviy natijalar asosida, balki ekologik va ijtimoiy mezonlar orqali ham baholash imkonini yaratadi.

Xususan, GRI, IFRS S1/S2, ESG va TCFD kabi xalqaro standartlar xizmat sohasidagi energiya sarfi, chiqindi miqdori, iqlim xavflari va boshqaruv darajasi kabi koʻrsatkichlarni kompleks tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa xizmat koʻrsatuvchi korxonalar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ekologik xavflarni kamaytirish va jamiyat oldidagi ijtimoiy javobgarlikni oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Oʻzbekiston sharoitida ushbu standartlarning tatbiq etilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Avvalo, davlatga qarashli yirik xizmat koʻrsatish korxonalarida tajriba loyihalari asosida barqarorlik hisobotlarini tayyorlash va ESG koʻrsatkichlarini moliyaviy tahlilga integratsiya qilish orqali bu sohada yangi yondashuvlar shakllanishi mumkin.

Shunday qilib, xizmat koʻrsatish korxonalarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asoslangan yondashuv yashil iqtisodiyot tamoyillarining amaliy joriy etilishi, korxonalar faoliyatining shaffofligi va ekologik masʼuliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Barqarorlik hisobotini yuritish boʻyicha milliy metodikani ishlab chiqish. Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirilgan, GRI, ESG, va IFRS S1/S2 standartlariga yaqinlashtirilgan metodik koʻrsatmalarni ishlab chiqish va xizmat koʻrsatish korxonalarida uchun amaliy qoʻllanma yaratish lozim.

- Yirik xizmat koʻrsatuvchi korxonalarda pilot loyihalarni joriy etish. Davlatga tegishli transport, pochta, turizm, sogʻliqni saqlash va kommunal xizmat korxonalarida yashil iqtisodiyot indikatorlarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish boʻyicha sinov loyihalari amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

- Moliyaviy hisobotga ekologik va ijtimoiy koʻrsatkichlarni integratsiya qilish. Xizmat sohasidagi korxonalar moliyaviy hisobot shakllarida energiya isteʼmoli, chiqindilar miqdori, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish kabi koʻrsatkichlarni kiritishi majburiy tartibda belgilanmogʻi zarur.

- Mutaxassislar malakasini oshirish va maxsus o'quv kurslari tashkil etish. Auditorlar, buxgalterlar, moliyaviy menejerlar uchun GRI, ESG va TCFD bo'yicha qisqa muddatli treninglar va malaka oshirish dasturlarini joriy qilish kerak.
- Bank va investorlarda yashil moliyalashtirish mezonlarini shakllantirish. Tijorat banklari va investitsiya fondlari tomonidan kredit ajratishda moliyaviy hisobotda ekologik ko'rsatkichlar mavjud bo'lishi alohida mezon sifatida ko'rib chiqilishi zarur.
- Yashil reyting tizimini ishlab chiqish. Xizmat ko'rsatish korxonalarining ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari asosida ularni baholovchi milliy reyting tizimini joriy qilish orqali, korxonalar o'rtasida sog'lom raqobat shakllantiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Холматов О. О. НЕОБХОДИМОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ // Мировая наука. 2022. №8 (65). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/neobhodimost-i-znachenie-perehoda-na-mezhdunarodnye-standarty-finansovoy-otchetnosti-v-uzbekistane>
2. Djurayeva Iroda Bahrom qizi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelish zarurati, umumiy hisobotlarining tuzilishi va O'zbekistonning mxsga o'tishida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlari. Vol. 1 No. 10 (2023): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali.
3. Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich, Qilichov Sobir Savriyevich "YASHIL IQTISODIYOT" VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI // EJAR. 2024. №7S. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-iqtisodiyot-va-uning-rivojlanish-bosqichlari>
4. М.Ж.Темирханова. Особенности организации бухгалтерского учета в туристических организациях. Экономика и управление: анализ тенденций и перспектив развития, 159-165 2015 год.
5. G.Yoziyev, M.Temirkhanova. Accounting development under the modernization of the Republic of Uzbekistan economy. Bulletin of Science and Practice 4 (3), 224-231 2018 y.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. GOCT 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**